

ZAMON MA'NOSINING TUR, YUR, YOT, O'TIR FE'LLARIDA VOQELANISHINI KORPUSDA TEGGLASH MASALASI

Xonnazarov Elyor G'ofurovich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
ToshDO'TAU katta o'qituvchisi.

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'zbek tilidagi davomiylikni ifodalovchi holat fe'llari – turmoq, yurmoq, yotmoq, o'tirmoq fe'llarining grammatik shakllar bilan zamon ma'nosini voqelantirishdagi o'ziga xosliklari haqida ma'lumot berilgan. Bu o'ziga xoslik keltirilgan fe'llarning semantikasi bilan aloqador ekanligi tahlillar asosida ochib berilgan. Shuningdek, amaliy jihatdan zamon ma'nosining bu fe'llarda voqelanişini korpus matnlarda teglash yuzasidan modellar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: zamon, grammatik shakl, fe'l, korpus, annotatsiya, o'tgan zamon, hozirgi zamon.

Abstract: This article provides information about the peculiarities of the verbs of Uzbek language – turmoq, yurmoq, yotmoq, o'tirmoq – in expressing the meaning of tense with grammatical forms. Based on the analysis, it was revealed that this peculiarity is related to the semantics of the mentioned verbs. Also, from a practical point of view, models have been developed for tagging the meaning of time in these verbs in corpus texts.

Keywords: tense, grammatical form, verb, corpus, annotation, past tense, present tense.

Аннотация: В данной статье представлена информация об особенностях глаголов узбекского языка – турмок, юрмок, ётмок, утирмок – в выражении значения времени грамматическими формами. На основе анализа выявлено, что данная особенность связана с семантикой упомянутых глаголов. Также с практической точки зрения разработаны модели обозначения значения времени у этих глаголов в корпусных текстах.

Ключевые слова: время, грамматическая форма, глагол, корпус, аннотация, прошедшее время, настоящее время.

Fe'ning grammatik xususiyatlarini tadqiq qilgan olimlar tomonidan zamon ma'nosining ifodalanishida fe'l leksik ma'nosining ta'sirga ega ekanligi aytib kelinsa-da, aynan qaysi fe'llarning qanday ta'sirga ega ekanligi maxsus o'rganilmagan. Biroq hozirgi zamon doirasida *yotmoq, yurmoq, turmoq, o'tirmoq* fe'llarining -ib shakli bilan o'ziga xos tarzda mazmunan hozirgi zamoni ifodalashi masalasiga to'xtalangan. Davomiylikni ifodalovchi holat fe'llari (*turmoq, yurmoq, yotmoq, o'tirmoq*)ning mustaqil holat fe'li va ko'makchi fe'l vazifalarida -(i)b shakli bilan hozirgi zamon ma'nosini anglatishi, hozirgi zamonning -yap, -yotir, -yotib kabi sintetik shakllarining kelib chiqishida asos vazifasini bajarishi, shuningdek, bir-biridan ma'noviy farqlanishi kabi masalalar o'zbek tilshunosligida, xususan, A.Hojiyev ishlarida [Xojiev, 1962, 51-68; Xojiev, 1973, 156-157] batafsil yoritilgan. Shu sababli biz bu o'rinda -ib qo'shimchasi bilan shaklan o'tgan zamonda turgan mazkur fe'llarning aslida hozirgi zamoni ifodalashini annotatsiyalash jarayonida hisobga olish qanchalar ahamiyatli ekanligiga urg'u bermoqchimiz.

N.Abdurahmonova morfologik razmetka tegger yordamida amalga oshirilsa ham, bu dasturlarning aksariyati avtomatik razmetkadan keyingi tuzatishni talab qilishiga, jumladan, o‘zbek tili uchun aynan istisnoli vaziyatlar ko‘p bo‘lganligi sababli qayta tahrirlash zarurati yuzaga kelishiga e‘tibor qaratadi [Abduraxmonova, 2021, 303]. Olimaning istisnoli vaziyatlar haqidagi fikrlari zamon shakllari annotatsiyasi uchun ham taalluqli bo‘lib, bu vaziyatlarni imkon qadar modellarda qamrab olish orqali natijani nisbatan yaxshilash mumkin. Biroq “cheklangan modellardagi grammatika nuqsonlardan xoli bo‘lmaydi” [Kalonova, 2012, 97]. Shunga qaramay, ba’zi istisnolardan tashqari matnning katta qismi uchun ishlashi sababli modellarning ahamiyati yuqori baholanadi.

Turmoq, yurmoq, yotmoq, o‘tirmoq fe‘llarining -ib shakli bilan hozirgi zamonni anglatishi ularning leksik ma‘nosi bilan bog‘liq bo‘lib, ular holat fe‘li, ko‘makchi fe‘l bo‘lganda davomiylik ma‘nosini ifodalaydi. Harakat ma‘nosini bildirganda esa -ib shakli bilan o‘tgan zamon ma‘nosini anglatadi. Ushbu fe‘llar -ib shakli bilan hozirgi zamon ma‘nosini ifodalashda ikki xil holatda qo‘llaniladi:

1. Holat ma‘nosi bilan mustaqil fe‘l sifatida: *Bundan bir yil muqaddam tashkil etilgan Maktabgacha ta‘lim vazirligi oldida juda ko‘p muammolar va ularni yechish vazifasi turibdi.* (marifat.uz)

2. Yetakchi fe‘lga birikib ko‘makchi fe‘l sifatida: *Umumiy hisobda 10 mingga yaqin maktab faoliyat ko‘rsatib turibdi.* (marifat.uz)

Ta‘limiy korpus (uzschoolcorpara.uz) matnlarida mazkur fe‘llarning -ib qo‘shimchasini olib shaxs-sonda tushlangan holatlaridan anglashiladigan zamon ma‘nosini tahlil qildik. Tahlil natijalari quyidagi jadvalda aks etgan:

1-jadval

T/r	Fe‘l shakli	O‘tgan zamon ma‘nosida		Hozirgi zamon ma‘nosida	
		Soni	Foizi	Soni	Foizi
1	yur+ib+shaxs-son	34	2%	1509	98%
2	tur+ib+shaxs-son	45	0,2%	24183	99,8%
3	o‘tir+ib+shaxs-son	4	0,5%	849	99,5%
4	yot+ib+shaxs-son	12	0,8%	1427	99,2%
Jami		95	0,3%	27968	99,7%

Jadvaldan ko‘rinadiki, keltirilgan fe‘l shakllari bugungi kunda o‘tgan zamon ma‘nosida juda kam ishlatiladi. Mavjud qo‘llanishlarda kontekstning ta‘siri ham yaqqol seziladi. Masalan: *Xayriyat, Mastura operatsiyadan bardam turibdi.* (A.Qahhor)

turmoq fe‘li -ib zamon shakli bilan qolgan uch fe‘lga nisbatan ancha faol ishlatiladi. Uning o‘zbek tilining barcha uslublarida qo‘llanila olishi bu natijaning yuzaga kelishidagi asosiy sabab hisoblanadi. Shuningdek, *turmoq, yotmoq* fe‘llari jonli va jonsiz subyektlar harakat-holatini ifodalay oladi. Biroq *yurmoq* va *o‘tirmoq* fe‘llari esa faqat jonli subyektlar harakat-holatini anglata oladi. Qolaversa, *yurmoq* va *turmoq* fe‘llarining son jihatdan -ib shakli bilan o‘tgan zamonda *o‘tirmoq* va *yotmoq* fe‘llariga nisbatan ko‘proq qo‘llanilishi, bizningcha, fe‘l semantikasiga ham aloqador hisoblanadi. Chunki *yurmoq, turmoq* fe‘llarida holatga nisbatan harakat ma‘nosi ustunlik qiladi (ayniqsa, *yurmoq* fe‘lida bu yaqqol seziladi). Masalan: “*Telefonimda yurgan masofamni o‘lchaydigan dastur bor. Kecha qaragam, bir smenada 24 kilometr masofa yuribman. Biror marta ham o‘tirmadim*”, – degan hamshira. (daryo.uz) *O‘tirmoq, yotmoq* fe‘llarida esa harakatga

nisbatan holat ma'nosi ustunlik qiladi. Shunga qaramay, kontekstga bog'liq holda, ba'zan ko'chma ma'noda qo'llanganda bu fe'llar ham o'tgan zamon ma'nosini voqelantiradi. Masalan: *Kecha tomoshabinlarimizdan biri: «Tasbehni ham o'ttiz uch marta o'giramiz, siz ham o'ttiz uch kun o'tiribsiz. Bunda ham bir hikmat bor. O'tgan kunlaringiz, butun hayotingiz go'zal sarhisob bo'libdi», deb yozibdi. (kun.uz).*

Tilshunos A.Hojiyev "Yotmoq, turmoq, yurmoq, o'tirmoq fe'llari harakat bildirganda boshqariluvchi so'z jo'nalish yoki chiqish kelishigi formasida bo'ladi. Holat bildirganda o'rin-payt kelishigi formasida bo'ladi" [Хожиев, 1962:52] deya kelishik shakllari orqali mazkur fe'llarning harakat yoki holat anglatayotganligini farqlaydi. Olim fikrini quyidagi misollar orqali asoslaydi:

divanga yotibdi (o'tgan zamon) – divanda yotibdi (hozirgi zamon)

stulga o'tiribdi (o'tgan zamon) – stulda o'tiribdi (hozirgi zamon)

joyidan turibdi (o'tgan zamon) – joyida turibdi (hozirgi zamon) [Хожиев, 1962:52]

Keltirilgan misollarda, haqiqatan ham, kelishik shakllari orqali harakat va holat ma'nosi, shu bilan bir qatorda zamon ma'nosi ham farqlangan. Ammo ta'limiy korpus matnlaridagi bu fe'llarning qo'llanishlarini tahlil qilganimizda har doim ham bu mezonga asoslanish to'g'ri natija beravermasligiga guvoh bo'ldik. Xususan, mazkur fe'llarning holat ma'nosini anglatishini faqat o'rin-payt kelishigi bilan chegaralash mumkin emas. Gapda bu kelishik shakli ishlatilmasa ham holat ma'nosi anglashilishi mumkin. Masalan: – *Shu bilganim o'zimga yetadi, chuchvaradan maqsad go'sht bilan xamir yeyish bo'lsa ikkovi ham turibdi, qo'shib yeyaveraman! (A.Qahhor)*

To'rtala fe'l ham hozirgi zamon ma'nosida o'z tarkibiga bo'lishsizlik shaklini qabul qilmaydi. Agar fe'l tarkibida bo'lishsizlik qo'shimchasi bo'lsa, demak, u o'tgan zamon ma'nosini anglatayotgan bo'ladi.

Masalan: *Kutib turibman* – hozirgi zamon ma'nosi; *Kutib turmabman* – o'tgan zamon ma'nosi.

Demak, bu fe'llarning -ib shakli bilan qo'llanilishida hozirgi zamon ma'nosi yetakchilik qiladi. Ayni shakldan o'tgan zamon ma'nosining anglashilishi juda kam hollarda bo'lib, bu xususida J. Abdullajonova shunday deydi: "Bu fe'l formalarining o'tgan zamon eshitilganlik ma'nosi og'zaki nutq uchun xarakterli bo'lib, badiiy adabiyotda uchramaydi"[Абдуллажонова, 1993:51]. Bular asosida xulosa qilish mumkinki, *turmoq, yurmoq, yotmoq, o'tirmoq* fe'llari holat fe'li ma'nosida -ib shakli bilan asosan hozirgi zamon ma'nosini anglatadi, ayrim hollarda ularda o'tgan zamon ma'nosining ifodalanishi esa kontekstdagi maxsus vositalar ta'sirida zamonning ko'chishi sifatida baholanadi. Masalan: *Ko'zlarimni ochsam, ToshMida yotibman, ana azob...* (kun.uz) Bu misolda kontekstdagi *ko'zlarimni ochsam* birikmasi ta'sirida *yotibman* fe'li o'tgan zamon ma'nosini anglatgan.

E'tiborli jihati, bu fe'llar o'tgan zamonning boshqa shakllari -di, -gan kabilarni olganda ham fe'l semantikasiga bog'liq ravishda o'tgan zamondagi davomiylik ma'nosini ifodalaydi. Masalan: *Bir kuni besh-oltita ochiq xotin orasiga kirib qolib, ne vaqtgacha ko'nglim g'ash, ta'bim kir bo'lib yurdim. (A.Qahhor)* *Shu ma'noda, aytish mumkinki, umummilliy uyg'onishning har ikkalasi poydevorida ham tarix, etnografiya, manbashunoslik, san'atshunoslik, numizmatika, arxeologiya singari sohalar yetakchilar qatorida turgan. (xs.uz)*

yotmoq, turmoq, o'tirmoq, yurmoq fe'llarining -(i)b shakli bilan ham hozirgi zamoni, ham o'tgan zamoni voqelantira olishi avtomatik tahlil qilishda muammoni yuzaga keltiradi. Bu muammo korpus matnlaridagi fe'llarning semantik jihatdan harakat va holat ma'nosini bildirishiga

ko‘ra teglanganligi bilan bog‘liq holda yechiladi. *yotmoq, turmoq, o‘tirmoq, yurmoq* fe‘llari harakat ma‘nosini bildirganda -(i)b shakli bilan o‘tgan zamon ma‘nosini, holat ma‘nosini bildirganda esa hozirgi zamon ma‘nosini anglatadi. Ushbu fe‘llarning hozirgi zamoni ifodalashi semantikasida mavjud davomiylik semasiga aloqadorlikda yuzaga keladi. Shuningdek, bu fe‘llar ko‘makchi fe‘l sifatida qo‘llanganda ham holat ma‘nosida bo‘ladi va bunda har doim hozirgi zamon ma‘nosini ifodalaydi. Buni quyidagicha modellashtirish mumkin:

Agar *yotmoq, turmoq, o‘tirmoq, yurmoq* fe‘llari harakat fe‘liga mansub bo‘lsa, ularning tarkibidagi -ib shakli o‘tgan zamoni anglatadi.

$F = \text{Harakat fe'li} = \{yot/tur/o'tir/yur\} + \downarrow N + ib + Sh_2$ bo‘lsa, “ib=Z1(2,a12)”

Shuningdek, bu fe‘llar tarkibida -ma bo‘lishsizlik shakli mavjud bo‘lsa, o‘tgan zamon ma‘nosi anglashiladi.

$F \{yot/tur/o'tir/yur\} + \downarrow N + BB_2 + b + Sh_2$ bo‘lsa, u holda “b=Z1(2,a11)”

Agar *yotmoq, turmoq, o‘tirmoq, yurmoq* fe‘llari holat fe‘liga mansub bo‘lsa, u holda ularga qo‘shilgan -ib zamon ko‘rsatkichi hozirgi zamoni anglatadi, ya‘ni:

$F = \text{Holat fe'li} = \{yot/tur/o'tir/yur\} + \downarrow N + ib + Sh_2$ bo‘lsa, “ib=(Z2)”.

Agar *yotmoq, turmoq, o‘tirmoq, yurmoq* fe‘llari ko‘makchi fe‘l bo‘lsa, u holda ularga qo‘shilgan -ib zamon ko‘rsatkichi hozirgi zamoni anglatadi, ya‘ni:

$F = \text{Ko'makchi fe'l} = \{yot/tur/o'tir/yur\} + \downarrow N + ib + Sh_2$ bo‘lsa, “ib=Z2”.

Yot, tur, o‘tir, yur fe‘llarining -ib shakli bilan hozirgi zamoni anglatishidagi yana bir o‘ziga xos jihat shundaki, zamon shaklidan oldin -ma bo‘lishsizlik qo‘shimchasi ishlatilmaydi. Agar -ma ishlatilsa, fe‘ldan hozirgi zamon emas, o‘tgan zamon ma‘nosi anglashiladi.

Yot+ib+shaxs-son, tur+ib+shaxs-son, o‘tir+ib+shaxs-son, yur+ib+shaxs-son shaklidagi fe‘llarning korpus matnlaridagi qo‘llanilishida garchi hozirgi zamon ma‘nosi ustuvor bo‘lsa-da, avtomatik annotatsiyalash jarayonida yuqori natijaga erishish uchun kam miqdorda bo‘lsa-da, bu shakldan anglashiladigan o‘tgan zamon ma‘nosiga ham e‘tibor qaratish kerak. Demak, korpus matnlaridagi fe‘llar semantik jihatdan harakat va holat fe‘llariga ajratilgandagina yuqoridagi modellar natija beradi va yuqoridagi fe‘llarning -ib zamon shakli bilan o‘tgan yoki hozirgi zamon ma‘nosini anglatayotganligini to‘liq farqlab bera oladi.

Umuman olganda, *yurmoq, turmoq, o‘tirmoq, yotmoq* holat fe‘llari semantikasida davomiylik ma‘nosi mavjudligi sababli yana qo‘shimcha davomli zamon shakllarini qabul qilmaydi. Bu fe‘llarning -ib shakli bilan hozirgi zamoni anglatishi ham leksik ma‘nosidagi davomiylik semasi ta‘sirida yuzaga keladi. Avtomatik annotatsiyalashda dastur grammatik shaklni qoidaga ko‘ra tasnifda berilgan zamon ma‘nosi bilan izohlaydi. Natijada annotatsiyada xatolik kuzatiladi. Zamoni ifodalovchi grammatik shakllarning korpus matnlarida anglatgan turli ma‘nolarini statistik o‘rganish va tavsifda o‘rganish natijalariga tayanish shakl haqida nisbatan ishonchli ma‘lumot beradi. Tahlillar zamonlarning ko‘chishi bilan bog‘liq misollardagi umumiyliklarni aniqlash va bu asosda ularning modellarini ishlab chiqish orqali bu muammoni qisman hal etish mumkinligini ko‘rsatdi. Omonim zamon grammatik shakllarining zamon ma‘nosini saralashda ularning so‘zdagi pozitsiyasidan, polisemantik zamon shakllarining ma‘nosini aniqlashda esa standart konstruksiyalar tarkibida uchrashidan kelib chiqib morfotaktik qoidalar asosida modellar tuziladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abduraxmonova N. Kompyuter lingvistikasi. – Toshkent: Nodirabegim, 2021. – B. 303.
2. Абдуллажонова Ж. Феъл замон формаларининг услубий хусусиятлари. –Тошкент: Фан, 1993. – Б. 51.
3. Ҳожиёв А. Ҳозирги замон феъллари // Феъл замонлари. – Тошкент: Фан, 1962. – Б. 51–68.
4. Ҳожиёв А. Феъл. – Тошкент: Фан, 1973. – Б. 156-157.
5. Калонова Д. Ўзбек тилида компьютер луғатчилиги. // Ўзбек тили ва адабиёти. – 2012. – №3. – Б. 97.